

MAKTAB TA'LIMIGA E'TIBOR

Ro'zimova Shohista Farhod qizi

Urganch davlat pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7807715>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab ta'limiga bo'lgan e'tibor, maktab bosqichlari, turlari va maktab haqida bir qator ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: maktab, o'qituvchi, ta'lim, maktab turlari.

Maktab — o'qituvchi rahbarligida yosh avlodga ma'lumot beriladigan va tarbiyaviy ishlar olib boriladigan o'quv tarbiya muassasasi. O'zbekistonda maktab, asosan, davlat mulki bo'lib, unda o'qish bepuldir. Shu bilan birga oliy o'quv yurtlarida o'qish qisman shartnoma asosida ota-onalar mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining 1997-yilda qabul qilingan „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni hamda „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ da belgilab berilganidek, O'zbekiston maktablarida ta'lim o'quvchilarning ona tilida olib boriladi. Barcha maktablarda o'quvchi va talabalar uchun uzliksiz tarzda ta'limning quyi bosqichidan yuqori bosqichiga o'tish ta'minlangan. Boshlang'ich va O'rta maktablarda ta'limning asosiy shakli — dars, o'rta maxsus va kasb-hunar, hamda oliy maktablarda — leksiya.

Maktabni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- a) beriladigan bilimning harakteriga ko'ra — umumiy va professional;
- b) bilimning ko'lamiga ko'ra — boshlang'ich (yoki quyi), o'rta, oliy;
- v) kimning qaramog'ida bo'lishiga qarab — davlat, munitsipal (jamoa) va xususiy;
- g) o'quvchilar jinsiga ko'ra — aralash (har ikki jinsdagi o'quvchilar uchun), ayollar hamda erkaklar maktabi;d) dinga nisbatan — dunyoviy va diniy (konfessional); bolalar maktabda bo'lish vaqtiga qarab — qatnab o'qiydigan maktab va tunab qolinadigan maktab (pansion, internat va b).

O'zbekistonda maktab, asosan, davlat mulki bo'lib, unda o'qish bepuldir. Shu bilan birga oliy o'quv yurtlarida o'qish qisman shartnoma asosida ota-onalar mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. O'zbekiston respublikasining 1997-yilda qabul qilingan „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni hamda „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ da belgilab berilganidek, O'zbekiston maktablarida ta'lim o'quvchilarning ona tilida olib boriladi. Barcha Maktablarda o'quvchi va talabalar uchun uzluksiz tarzda ta'limning quyi bosqichidan yuqori bosqichiga o'tish ta'minlangan. Boshlang'ich va o'rta Maktablarda ta'limning asosiy shakli — dars, o'rta maxsus va kasb-hunar, hamda oliy maktablarda — leksiya.

Ilk Maktablar qadimgi Sharq mamlakatlari (Xitoy, Bobil, Misr va boshqalar)da paydo bo'lgan; bu mamlakatlardagi ibodatxonalarda kohinlar va kotiblar Maktablari bo'lgan. Yevropada dastlabki Maktablar taxminan miloddan avvalgi 6-asrda Yunonistonda, miloddan avvalgi 4-asrda Qadimgi Rimda vujudga kelgan.

O'rta Osiyoda boshlang'ich ta'lim beradigan Maktab maktabxona deb nomlangan. O'rta Osiyoda Maktablar tipidan yana Madrasa, qorixonani ko'rsatish mumkin. Madrasa o'rta va oliy tipdagi Maktab hisoblangan; qorixonada Qur'onni tilovat qilish o'rganilgan.

Turkistondagi rus aholi mahalliy aholiga nisbatan Maktablar bilan yaxshi ta'minlangan. 1876-yildan gimnaziya, real maktab, muallimlar seminariyasi va boshqa xil Maktablar ochilgan. Rus Maktablarining ayrimlarida mahalliy millat bolalari ham o'qigan. 19-asr oxirlarida mahalliy

millat bolalari uchun rus-tuzem maktablari tashkil etila boshladi. Bu Maktablar, asosan, chorizmning mustamlakachilik siyosatiga xizmat qilgan bo'lsada, o'lkada ilg'or o'qish usullarining yoyilishida ma'lum rol o'ynadi. Sovet tuzumi davrida maktablardagi ta'lim jarayonining o'zi va o'qitish uslubi atidagi har xil kamchiliklar oqibatida bilim berishda yuzaga kelgan nodemokratik hamda jamiyat uchun zararli muhit shunga olib keldiki, o'quvchilarda mustaqil fikrlash rivojlanmay qoldi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, maktablarning moddiy texnika bazasini rivojlantirish, ularni ilmiy metodik jihatdan ta'minlash sohasida bir qator ishlar amalga oshirildi. O'zbekistonda Maktab ishlari yuksak sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Mamlakatda 9672 umumiy o'rta ta'lim maktabi (6 milliondan ortiq o'quvchi), 224 o'rta maxsus va kasb-hunar o'quv yurti (223 ming o'quvchi), 61 oliy o'quv yurti (125,5 ming talaba) mavjud (2002).

Maktab atamasi, shuningdek, rangtasvir, haykaltaroshlikka, o'ziga xosligi aniq ifodalangan shahar yoki ma'lum viloyat me'morligiga, u yoki bu darajada aniq, uslubiy va tarixiy chegaralariga ega bo'lgan butun bir mamlakatning milliy san'atiga nisbatan ham qo'llanadi (masalan, Hirot miniatyura maktabi).

Har bir inson borki, maktab ostonasiga qadam qo'yar ekan, o'zining eng beg'ubor, eng samimiy, eng go'zal davrlarini yodga oladi.

Biz pedagoglarning asosiy vazifamiz-kelajakni yaratuvchi bilimli, Vatanimiz ishonadigan, diyorimiz sha'nini ulug'laydigan farzandlarimizga bilim berish va tarbiyalashdir. Ilk bor jajji qalbimga katta orzular, yuksak maqsadlar, intilishlar olib kirgan muqaddas maskan - maktab. Har tongda men intiladigan dargohdir maktab. Birinchi marta qo'llarimga qalam tutqazib yozishga o'rgatgan va o'zining betakror sehrli olamiga olib kirgan mehribon ustozimni topgan makon - maktab. Har bir iqtidor va qobiliyatni yuzaga chiqarish, o'quvchining intilishlariga munosib yo'l ko'rsatishda maktabning ahamiyati benihoya katta.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, maktablarning moddiy texnika bazasini rivojlantirish, ularni ilmiy metodik jihatdan ta'minlash sohasida bir qator ishlar amalga oshirildi. O'zbekistonda maktab ishlari yuksak sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

Jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu - maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Prezidentimiz tomonidan yosh avlodni yuksak axloq va ma'naviyat sohibi etib kamolga etkazish, ularga eng zamonaviy bilim va kasb-hunar o'rgatish masalasiga ustuvor vazifa sifatida yondashilmoqda. Xalqimiz, ota-onalar, pedagogik jamoa hamda o'quvchi-yoshlarning xohish-irodasiga binoan yurtimizda 11 yillik ta'lim tizimi joriy etildi. Bu esa yoshlarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish, ularning doimiy tarzda ota-onasi, pedagoglarning nigohida bo'lishini ta'minlash, bilimlarni puxta, chalg'imagay egallashida asosiy omil bo'lmoqda. Ayni paytda o'quv-tarbiyaviy ishlar sifatini yanada oshirish maqsadida pedagoglarga har qachongidan ham e'tibor kuchaytirildi. Maktabda yoshlarga bilimlar bilan birga insoniylik sabog'i, Vatan taraqqiyoti

yoʻlidagi halol mehnat, istiqlool bergan neʼmatlarni koʻz qorachigʻidek avaylashga oid koʻnikmalar ham chuqur singdiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida joriy yil 23 avgust kuni xalq taʼlimi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiytdagi nufuzini oshirish, yosh avlod maʼnaviyatini yuksaltirish masalalariga bagʻishlangan videoselektor yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Ammo amalga oshirilayotgan ijobiy oʻzgarishlarga qaramasdan, taʼlim tizimida hamon tizimli muammolar borligi, maktablarning moddiy-texnik bazasi, ayrim pedagog xodimlarning bilim va malakasi bugungi zamon talablariga javob bermasligi yigʻilishda tanqid qilib oʻtildi.

Taʼlim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, oʻqitish metodlari, taʼlim standartlari, darslik va oʻquv qoʻllanmalarini yangilash zarurligi, bilim berishda chet eldagi ilgʻor tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy anʼana va qadriyatlarga suyanish muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» degan tamoyilga asoslangan holda, milliy gʻoya va uning mafkuraviy negizlarini puxta ishlab chiqish, yosh avlodni bolalikdan milliy gʻurur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega ekanini taʼkidladi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, maktablardagi kamchiliklarni tuzatish, taʼlim sifatini nazorat qilish uchun ota-onalar, keng jamoatchilikning ishtiroki zarurligiga alohida eʼtibor qaratiladi. Shunday ekan bu yoʻlda ustozlarga astoydil boʻlishlarini, ajdodlarimizga haqiqiy farzand boʻladigan, ularning yoʻlini davom ettiradigan kadrlarni etishtirib chiqarishda charchamasliklarini tilab qolamiz.

References:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-4947-son farmoni //Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami. -Toshkent, 2017. - 6-son.
2. “Oʻzbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qoʻyiladigan davlat talablari”. Toshkent 2018.
3. www.google.com internet tarmogʻi